
Farg'ona shahrida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha seminar tashkillandi

Davlatimiz rahbari tomonidan respublikamizdagi umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotgan o'quvchilar endilikda ikkita tilda bimalol muloqot qila olishi va biror hunar egasi bo'lib chiqishlari lozimligi haqidagi tavsiya ilgari surilgan edi. Ayni kunlarda mazkur tashabbus doirasida Farg'ona shahridagi ta'lim muassasalarida ham o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bugun 26-maktabda bu tashabbusni shahrimizdagi barcha maktablarda takomillashtirish va tajriba almashish maqsadida seminar o'tkazildi. Unda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Sherzod Dolimov, shahar hokimi o'rinbosari Yusufjon Yusupov, shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri Gulxumorxon Xalilova hamda ta'lim muassasalari direktorlari, hududdagi mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlari ishtirok etishdi.

Ta'lim muassasasida o'quvchilarni chet tilini mukammal bilishlarini ta'minlash maqsadida ingliz va koreys tillari mashg'ulotlari, video marketing, Web-dizayn, duradgorlik, rassomchilik, pazandachilik sirlari, tikuvchilik, milliy hunarmandchilik, chevarchilik, kasanachilik kabi yo'nalishlar bo'yicha tashkillangan kasb hunar o'rgatish kurslari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Hozirda maktabning 7-11-sinflarida tahsil olayotgan 500 nafardan ortiq o'quvchilar mazkur kurslar orqali kasb-hunar egallamoqdalar.

Tadbir qatnashchilari maktabda darslardan so'ng 7-11-sinf o'quvchilarining hunar o'rganishlari uchun olib borilayotgan mashg'ulotlar, ularga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Ishtirokchilar mashg'ulotlar jarayonini ham kuzatdilar va tadbir yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-02-13 16:28:30